

Labaratoriya mashg'uloti ishlanmasi

Yo.YUsupova

MAVZU: - XOTIRA 2 soat

IShNING MAQSADI: Emotsional va betaraf tusdagi so'zlarni ixtiyorsiz esda qoldirishni tekshirish, ikki qator so'zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mexanik va mantiqiy xotirani tekshirish, Turli predmetlar surati aks yettirilgankartochkalar yordamida obrazli xotirani tekshirish, :xar bir so'z qo'zg'ovchisi ta'sirida ongda xosil bo'ladigan obraz va fikrlarni xarakterini belgilash.

NAZARIY MA'LUMOTLAR: XOTIRA TURLARI VA PROTSESSLARI HAKIDA TUSHUNCHA.

Idrok kilingan narsa va xodisalarni yoki inson tajribasida bor bulgan narsalarni esda koldirish, mustahkamlash xamda zarur vaktida esga tushirishdan iborat bulgan psixik protsessga xotira deb aytiladi.

Xotiraning namoyon bulish shakllari xam boshqa psixik protsesslar singari xar xil buladi. Masalan: *psixik aktivlik faoliyatiga ko'ra: harakat, obrazli, xis.tuygular, so'z mantiq,,faoliyat maqsadiga ko'ra:* ixtiyorsiz, ixtiyoriy: *davomiyligiga ko'ra:* qiska muddatli, uzok muddatli va operativ xotira degan turlariga yega.

Xotiraning fiziologik asoslari bosh miya yarim sharlari kobig'ida muvaqqat nerv bog'lanishlarining hosil bulishi,mustaxkamlanishi va keyinchalik aktivlashuvi (jonlanishi)dir.

Harakat xotirasi-har turli harakatlarni esda qoldirish,mustaxkamlash va zarur paytlarda qaytadan esga tushirishdan iborat.

Obrazli xotira –yaqqol mazmunli, ya'ni narsa va xodisalarning konkret obrazlarini,ularning konkret xususiyat va bog'lanishlarini esda qoldirish,mustaxkamlash xamda esga tushirishdan iborat xotira turidir.

Obrazli xotira analizatorlarninng nomiga ko'ruv,yeshituv,teri-tuyush kabi turlarga bo'linadi. Obrazli xotiraning aloxida bir turi yeydetizm(narsa va xodisalarning obrazini aniq yorkin esga tushirish)dir

So'z-mantiq xotirasi—muayyan fikrlarni, fikrlar va so'zlar urtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni esda qoldirish, mustaxkamlash va esga tushirishdan iborat, fakat insonlarga xos bulgan (obraz,harakat,emotsional,hayvonlarga xam xos) xotira turi. So'z –mantiq xotirasi kuproq tafakko'r,ayniksa abstrakt tafakko'r bilan bog'liqdir.

His-tuyg'ular xotirasi--- vokelikdagi narsa va xodisalardan, uz-uzimizga bulgan munosabatimizdan kelib chikadigan yoqimli hamda yoqimsiz kechinmalarni esda qoldirish va esga tushirishdan iborat bulgan xotira turi.

Xotiraning asosiy protsesslari

Esda qoldirish –idrok qilingan narsa va xodisalarni ongimizda qoldirishimiz.

Esga tushirish:- avval idrok qilingan narsa va xodisalarning obrazlarini keyinchalik ongimizda kayta tiklanishi.

Esda saqlash:- bosh miya yarim sharlari kobig‘ini ng plastiklik xususiyatigako‘ra, idrok kilingan narsa va xodisalar obrazlarining,izsiz yuqolib ketmay, ongimizda saqlanib qolishi:

Unitish - avval idrok qilingan yoki esda qoldirilgan narsa va xodisalarni zarur payitda esga tushira olmaslik:

Tanib olish—avval esda qoldirilgan narsa va xodisalarni takror idrok qilish orqali esga tushirish kabilardan iboratdir.

Xotira inson xayoti va faoliyatiningbarcha soxalarida ishtiroketadi. Shuning uchun ham uning ahamiyati juda katta.

Ishning bajarish tartibi Har bir hotira jarayonlari bo‘yicha amaliy tajriba o‘tkazish asosida ularning hususiyatlarini aniqlash/

Ihtiyoriy esda qoldirish

Ishning maqsadi:

Emotsional va betaraf tusdagi so‘zlarni ixtiyorsiz esda qoldirishni tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar bir qator so‘zlar: zulmat, kuy, g‘am, faryod, o‘yin, og‘riq.

Ishning bajarish tartibi tekshiriluvchi bir varaq qog‘ozni kundalangiga buklab 2 qismga buladi, tekshiruvchi yuqoridagi so‘zlarni o‘qib beradi. Sinaluvchi ukilgan so‘zlarni tinglab bulgach,ularni kuyidagicha tartibda yozadi: kog‘ozning chap tomoniga emotsional tipdagi ,ungdagiga yeasa emotsional tusga yega bulmagan betaraf so‘zlarni yozib chiqadi. So‘zlarni yozilgan qog‘ozni bir chekkaga olib quyadi.So‘ngra tekshiriluvchi yana bir varaq qog‘oz olib ikkiga buklaydi. Keyin oldingi so‘zlarni birin ketin esga olib, ularning emotsional tusga yega bulganlarini qog‘ozning chap tomoniga, emotsional tusga yega bulmaganini esa qog‘ozning ung tomoniga takror yozadi.

Ish natijalarini taxlil qilish. Birinchi va ikkinchn qog‘ozdagi so‘zlarning sonini (emotsional,noemotsional so‘zlar aloxida) hisoblab chiqiladi. So‘ngra xar qaysi gruppadagiso‘zlarning tug‘ri esga tushirilganini nisbati xisoblab chiqiladi.

MANTIQUIY VA MEXANIQ XOTIRA

Ishning maqsadi: ikki qator so‘zlarni esda qoldirish metodi yordami bilan mexaniq va mantiqiy xotirani tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar: ikki qator so‘zlar. Birinchi qator so‘zlar uzaro ma’no jixatdan bog‘lanishga yega. Ikkinchi qatordagi so‘zlar esa uzaro ma’no jixatdan bog‘lanishga yega emas.

Birinchi qator.

Ikkinchi qator.

Qug'irchoq ---o'ynamoq.

Qo'ng'iz---stul.

Tovuq---tuxum.

Taroq-yor

Qaychi-----qirqmoq.

Kompas ---yolim.

Kitob-----uqituvchi

Tosh---shamol.

Ishning bajarish tartibi:

Tekshirish ikki seriyada o'tkaziladi Birinchi seriyada ----- Tekshiruvchi tekshiriluvchiga birinchi qatordagi juft so'zlarni o'qib beradi. 10 sekunddan sung tekshiriluvchi yeshitgan juft so'zlarni qog'ozga yozadi. so'ngra tavsiya qilingan so'zlar bilan tekshiriluvchining esda olib qolgan so'zlarni solishtirib mantiqiy xotira ning koeffitsenti xisoblab chiqiladi.Ishning natijalari quyidagi jadvalda aks yettirilib quyiladi,

MANTIQIY XOTIRANING HAJMI.

Birinchi kator so'zlar soni	Esda qoldirilgan so'z.	Mantiqiy xotira koef.

Ikkinchi seriya :bunda xam birinchi seriyadagidek ish ko'riladi.Faqat tekshiruvchi ikkinchi qatordagi so'zlarni (xar bir juft oralig'ida 10 sek. Tanaff.b\n) uqiydi.

Oxirida yana 10 sek. tanaffdan so'ng tekshiriluvchi esda koldirilgan so'zlarni qog'ozga yozadi va tavsiya qilingan so'zlar bilan esda olib qolgan so'zlar taqqoslab chiqilib ,ular orasidagi koeff. xisoblab chiqiladi va jadvalda aks ettiriladi.

MEXANIQ XOTIRANING HAJMI

Ikkinchi qatordagi so'zlar soni	Esda koldirilgan so'zlar soni	Mexaniq xotira koeffitsenti.

So'ngra xar ikkala seriyadagi natijalar taqqoslanib ular urtasidagi farq va uning sabablari xaqida umumiy xulosa chiqariladi.

.OBRAZLI XOTIRA .

Ishning maqsadi Turli predmetlar surati aks yettirilgan kartochkalar yordamida obrazli xotirani tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar.30ta predmet rasmi solingan ikki komplekt kartochkalar.Talabalar oldindan kartochkalarni tayyorlab qo'yadilar.

Ishning bajarish tartibi. Bu tajriba ikki variantda o'tkaziladi. Birinchi variantda

tekshiriluvchi unga ko'rsatiladigan tasvirlarni yodda saqlab qolishi zarurligi ogohlantiriladi. Ko'rsatma berib bulgach tadqiqotchi kartochkalarni tekshiriluvchiga ko'rsatib chiqadi. So'ngra esda olib qolingan rasmlarni nomini yozib chiqishni takif yetadi.Tug'ri esda olib qolingan predmetlar soni tekshiriluvchi obrazli xotirasining hajmi bulib hisoblanadi. Ikkinchi variantda tekshiriluvchiga 30ta boshqa xil kartochkalar beriladi.Ular orasida ayrim Jixatlari bilan umumiylik belgisiga yega bulgan suratlarni aloxida gruppaga ajratib chiqish tavsiya qilinadi.Bu ishning bajarilishiga 90 sek. vakt belgilanadi. Bu gruppaga tramvay, samalyot velosiped, chang'i singari tashqi belgisi jixatidan xar xil ko'rinishga yega bulgan predmetlar bulishi mumkin.Chunki ularning barchasiga tegishli bulgan umumiylik belgisi –ularning harakat vositasi ekanligidir. 30 sek. sung tadqiqotchi kartochkalarni yig'ishtirib oladi.

Ishning natijasini taxlil qilish. Olingan natijalar quyidagi jadvalda qayd qilinadi.

Variant no-meri	Tavsiya qilingan quzg'ovchi	Tekshiriluvchi-dan olingan natija	Xato	To'g'ri esga tushirilgan predmet soni.
Birinchi	30	22	----	20
Ikkinchi	30	30		30

Olingan natijalarga asoslanib xotiraga ijobiy ta'sir ko'rsatar ekan degan xulosaga kelish mumkin.

XOTIRA TASAVVURI.

Ishning maqsadi: xar bir so'z quzg'ovchisi ta'sirida ongda xosil buladiganobraz vafikrlarni xarakterini belgilash.

Ish uchun zarur jihozlar: konkret va mavxum tushunchani anglatuvchi bir qator so'zlar : jarlik,ukuvchi,kit, lola, maktab,tabiat, hayvonlar,bino, tezlik, usish, taklif, sifat, yulboshchi, taraqqiyot, so'zlari yozilgan kartochkalar

Ishning bajarish tartibi:Ishningchi 2 sek. mobaynida taxistaskop yordamida tekshiriluvchiga so'z yozilgan kartochkalar ko'rsatadi.3 sek. to'xtalgandan so'ng so'raydi:

“Bu so'z sizning ongingizda qanday o'brazni xosil qiladi?” Tekshiriluvchining javobi so'zma-so'z yozib boriladi.

Ishning natijalarini taxlil qilish. Jami 10 soʻzni koʻrsatish jarayonida tekshiriluvchidan olingan javob,natijalar quyidagi jadvalda kayd qilib chiqiladi.

Soʻz koʻzgʻov - chi	Obraz va fikrlarning muhimlashtirish.					
	Taʼsi rlanish	Pred.ob razi.	Soʻzlar obrazi.	Shakllar obrazi.	Obrazsi z fikrlar.	Obraz va fikrlar ning mavjud emasligi.

Tekshiriluvchining javoblarini taqqoslab chiqish asosida quyidagicha xulosa chiqarish mumkin: tekshiriluvchining tushunchasi chalgʻib turgan paytida, uning predmet xaqidagi tasavvuri siyraklashadi, yakkam-dukkam buladi. Har qanday koʻruv tasavvutlariningishtirokida tushunchalar mazmuniga oid fikrlar obrazining xajmi kichraya boradi.

HISOBOT REJASI

- 1) Ishning mavzusi maqsad va vazifalari
- 2) Ishni amalga oshirish rejasi, tuzilish tartibi
- 3) Bajarilgan ishga atroflicha (kengaytirillgan) tavsif tayyorlash
- 4) Olingan natijalar
- 5) Oʻtkazilgan nazorat mashqlarini oʻziga hos tomonlarini ajratish
- 6) Hulosa va mulohazalar

TAYaNCh SOʻZ IBORALAR:

Xotira, Xotira turlari, Xotira,jarayonlari esga olish, esga tushurish,qayta yeslash, unutish, xotira tasavvurlari. his-tuygʻular xotirasi, tanib olish

NAZORAT SAVOLLARI:

- 1) Xotira deb nimga aytiladi?,
- 2) Xotiraning qanday turlari bor?
- 3) Xotira garayonlarini sanab bering?
- 4) Xotira hususiyatlari qanday?

5) Xotirani o'rganish usullarini ayting?

6) Xotira va boshqa psihik jarayonlar.

ADABIYOTLAR

1. Ye.G.Goziev «Umumiy psixologiya» Toshkent universiteti 2002 yil
2. A.V.Petrovskiy «Umumiy psixologiya» Toshkent O'qituvchi 1996
3. Ye.G.Goziev «Psixologiya metodologiyasi» Toshkent universiteti 2000 yil
4. Ye.G.Goziev «Xulq atvor va motivatsiya» Toshkent 2002 yil
5. Daminov A.V. va boshqaalar "Psixologiyadan seminar va laboratoriya ishlanmalari"
6. Xaxlova Z.N. "Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar"

Qo'shimcha adabiyotlar

1. P.Ivanov «Umumiy psixologiya» Toshkent 1986 yil
2. M.O.Gemezo «Psixologiya» Toshkent 1996 yil